



**Saparbaev Azamat**

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali talabasi

**Ilmiy rahbar: Yuldasheva Zuxra Salievna**

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali katta o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'zbek milliy raqs san'atining xalq ma'naviyati va madaniy merosidagi o'rni haqida ma'lumotlar keltirilgan va atroflicha fikrlar bildirilib o'tilgan. Undan tashqari mazkur maqolada raqs san'atini milliy merosning bebaho durdonasi sifatida asrab-avaylash va kelajak avlodga yetkazish kerakligi ta'kidlanadi.

**Kalit so'zlar:** raqs san'ati, milliy meros, madaniy boylig, milliy o'zlik, insoniy fazilatlar, estetika.

**Аннотация:** В статье дается информация и всесторонние взгляды на роль узбекского национального танца в духовности и культурном наследии народа. Кроме того, в статье подчеркивается необходимость сохранения и передачи будущим поколениям искусства танца как бесценной жемчужины национального наследия.

**Ключевые слова:** танцевальное искусство, национальное наследие, культурное богатство, национальная идентичность, человеческие качества, эстетика.

**Abstract:** This article presents information and comprehensive views on the role of the Uzbek national dance art in the national spirituality and cultural heritage. In addition, this article emphasizes the need to preserve the art of dance as a priceless masterpiece of national heritage and pass it on to future generations.

**Keywords:** dance art, national heritage, cultural wealth, national identity, human qualities, aesthetics.

Insoniyat qadim-qadimdan o'z kechinmalari, quvonch va g'amlarini ifoda etish, ichki holatini ko'rsatish uchun turli san'at turlaridan foydalangan. Musiqa, she'riyat, haykaltaroshlik, tasviriy san'at va, albatta, raqs ana shunday nozik tuyg'ularni obrazli ifodalashning boy manbai bo'lib kelgan. Ayniqsa, raqs san'ati insoniyat tarixida eng qadimiy va eng jonli san'at turlaridan biri hisoblanadi. Har bir harakat, har bir raqsiy





ohang – bu faqat jismoniy harakatlar emas, balki bir xalqning ruhiy olami, dunyoqarashi, hayotga bo‘lgan munosabati, orzu-umidlari va qadriyatlarini o‘zida mujassamlashtirgan betakror ifodadir. Shu ma’noda raqs san’ati har bir millatning madaniy boyligi, tarixiy xotirasi va estetik qarashlarini ifodalovchi noyob hodisadir.

O‘sib kelayotgan yosh avlod ongu shuuriga ezgulik va nafosat, estetik-ma’naviy kamolotga muhabbat tuyg‘ularini singdirishda o‘zbek milliy raqs san’atining o‘rni hamda ahamiyati beqiyos. Milliy raqslarda xalqimizning eng munavvar qadriyatlari, insoniy fazilatlari, milliy an’analarini ifodalanadi [2:1]. Chunki milliy raqslarda har bir harakat, ohang, libos va mimika orqali xalqning insoniy fazilatlari – halollik, mehr-oqibat, or-nomus, mehnatsevarlik kabi yuksak sifatleri ifodasini topadi. Bu san’at turi yoshlarni nafaqat chiroyli harakatga, balki go‘zallikni anglash, qadrlash va asrashga o‘rgatadi. Shunday ekan, milliy raqs san’atini asrash, rivojlantirish va uni yosh avlodga yetkazish – bu nafaqat san’atkor va ijodkorlarning, balki har bir vatanparvar insonning burchidir. Chunki milliy raqs – bu millatning yuragi, ruhi va o‘zligini saqlab qolish vositasidir.

Xalqimizning asrlar davomida shakllangan yuksak ma’naviy qadriyatlari va ma’naviy merosini asrab-avaylash hamda jahon madaniyati bilan uyg‘un holda rivojlantirish, milliy madaniyatni keng targ‘ib etish, uning xalqaro maydonda tutgan o‘rni va mavqeyini yanada mustahkamlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4038-son Qarori tasdiqlandi [1].

Hozirgi kunda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan ko‘plab professional, xavaskorlik va folklor-etnografik ansambllarda “Ustoz - shogird” an’analarini davom ettirilib kelinmoqda. Qadim zamonlardan bizning kungacha saqlanib kelgan merosiy raqs namunalari yosh ijrochilar tomonidan o‘zlashtirilib kelinmoqda.

O‘zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan 2018 – yilda qabul qilingan “Milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasi”da o‘zbek xalqining mumtoz va folklor san’atining noyob namunalari, xususan o‘zbek milliy raqs san’ati sohasidagi o‘ziga xos ijro maktablari va an’analarini asrab-avaylash va rivojlantirish bo‘yicha zarur chora-tadbirlar amalga oshirilib kelmoqda. Mazkur konsepsiyada o‘zbek milliy raqs san’ati sohasida yangi iste’dodli ijrochilarni kashf etish, yosh avlodni raqs san’atiga bo‘lgan qiziqishini orttirish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining Mukarrama Turg‘unboyeva nomidagi “Yosh maqom ijrochilari” Respublika ko‘rik-tanlovini an’anaviy ravishda o‘tkazish to‘g‘risidagi takliflar amalga oshirilishi belgilangan. Hozirgi kunda mamlakatimizda xoreografiya sohasidagi ta’lim tizimida chuqur islohotlar olib borilmoqda. Bu soha





bo'yicha turli meyoriy hujjatlar qabul qilindi. Ta'lim–tarbiyaga davlat darajasida e'tibor berilayotganligi bu sohani zamon talablari darajasida rivojlantirish imkonini bermoqda [3:85].

Shu bois, bugun o'zbek raqs san'atida o'ziga xos, o'z uslubiga ega bo'lgan Buxoro, Xorazm, Farg'ona kabi o'ziga xos maktablar shakllanib, har birining o'z betakror uslubi, harakati, kiyim-kechak madaniyati, musiqiy jo'rliigi bor. Bu maktablar nafaqat raqsning texnik ko'rinishini, balki uning falsafasini, ichki ma'nosini ham yoritadi. Ayniqsa, xalq raqslari orqali xalqning yashash tarzi, urf-odatlar, mehnat faoliyati va hatto ijtimoiy munosabatlari aks etadi. Raqs bizga ajdodlarimizning ruhiy olami, estetik qarashlari, zavqlanish manbalari haqida chuqur ma'lumot beradi.

Shu bilan birga, raqs san'ati o'zbek milliy madaniyatining ajralmas bir bo'lagi sifatida zamonlar sinovidan o'tgan, bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Har bir harakat, ishorat, yelka yoki qo'l qimirlatish ortida o'ziga xos ma'no yashiringan. Bu san'at nafaqat ko'ngilni shod etadi, balki inson ruhiyatini yuksaltiradi, estetik tarbiya beradi, madaniy tafakkurni shakllantiradi. Bugun raqs san'atining sahna ko'rinishlari, xalq bayramlaridagi ijrosi, zamonaviy ko'rinishdagi interpretatsiyalari bilan, bu boy merosning qanchalik chuqur ildizlarga ega ekanini yana bir bor anglaymiz.

Zamon o'zgarar, texnika va texnologiyalar taraqqiy etar, lekin xalqning yuragida yashaydigan san'at turlari, jumladan raqs, hech qachon o'z ahamiyatini yo'qotmaydi. Aksincha, u zamon bilan hamnafas bo'lib, o'zining yangi-yangi qirralarini namoyon etadi. Raqs san'ati orqali biz o'zligimizni, milliy g'ururimizni, tarixiy ildizlarimizni his etamiz, uni asraymiz va kelgusi avlodlarga meros sifatida yetkazamiz. Shu sababdan ham raqs san'ati – milliy merosimizning bebaho durdonasi sifatida qadrlanadi va e'zozlanadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4038-son Qarori.
2. Hamroyeva H. Milliy raqs xalqimizning eng munavvar qadriyati. Yangi O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy gazetasining 2020-yil 10-oktabrdagi soni. <https://yuz.uz/uz/news/milliy-raqs-xalqimizning-eng-munavvar-qadriyati>.
3. Jalilova Sh. O'zbek raqsini o'qitish uslubiyoti. – Toshkent.: O'zDXA, 2020. 100 b.





4. Kalkanatov, Asilbek. "PROFESSIONAL QUALIFICATION OF THE MANAGER IN THE CULTURAL FIELD." *JOURNAL OF ECONOMY, TOURISM AND SERVICE* 2.9 (2023): 19-23.
5. Kalkanatov, Asilbek. "THE IMPORTANCE OF MANAGING THE PARTICIPATION OF CULTURAL AND ART INSTITUTIONS AND ORGANIZATIONS IN CULTURAL ACTIVITIES." *Journal of Innovation, Creativity and Art* 2.9 (2023): 7-10.
6. Abatbaevna, Saparbaeva Gulshira, and Qolqanatov Asilbek Nazarbaevich. "History of the Development of Spiritual and Educational Processes in Karakalpakstan." (2023).
7. ЮЛДАШЕВА, Манзура, and АСЫЛБЕК КОЛКАНАТОВ. "ПУТИ ФОРМИРОВАНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ МОЛОДЕЖИ В СОЦИОКУЛЬТУРНОЙ СРЕДЕ." *Journal of Culture and Art* 1.1 (2023): 16-20.
8. Zokirovich, Muminmirzo Kholmuminov, and Asilbek Kolkanatov Nazarbaevich. "A LOOK AT THE HISTORY OF CLUB ESTABLISHMENTS AND CULTURAL AND EDUCATIONAL PROCESS IN UZBEKISTAN." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 10.2 (2022): 37-44.
9. Юлдашева, Манзура, and Асылбек Колканатов. "OILAVIY DAM OLISH MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA IJTIMOYIY VA MADANIY MARKETING." *Scientific journal of the Fergana State University* 3 (2022): 6-6.
10. Xolmo‘Minov, Mo‘Minmirzo, and Asilbek Qolqanatov. "MUFASSAL MUSHOHADALAR ME‘MORIDAN MUFASSAL MUSHOHADALAR MEROJI." *Oriental Art and Culture* 3.2 (2022): 568-580.
11. Yuldasheva, Manzura, and Asilbek Qolqanatov. "O ‘ZBEKISTONDA MUZEY MENEJMENTI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH XUSUSIYATLARI." *Oriental Art and Culture* 3.1 (2022): 254-260.
12. Xolmo‘Minov, Mo‘Minmirzo, and Asilbek Qolqanatov. "O‘ZBEKISTONDA MADANIY-MA‘RIFIY ISHLAR VA KUTUBXONALAR FAOLIYATI (XX ASR TAJRIBALARIDAN)." *Oriental Art and Culture* 3.1 (2022): 281-290.
13. Kholmuminov, Muminmirzo, and Asilbek Qolqanatov. "The Formation of the First Libraries in Uzbekistan and the Role of Increasing the Cultural and Educational Awareness of the Population." *International Journal on Integrated Education* 4.12 (2021): 146-151.





14. Kolkanatov, Asilbek. "IFTIKHORI TIMSOLI TUMOR BRANCH." *JOURNAL OF HEALTHCARE AND LIFE-SCIENCE RESEARCH* 2.11 (2023): 67-69.
15. Nazarbay o'g'li, Qolqanatov Asilbek. "OMMAVIY TOMOSHA MUASSASALARI FAOLIYATI TAHLILI." *Academic Integrity and Lifelong Learning (France)* 2 (2023): 15-21.
16. Kalkanatov, Asilbek, Shahabatdin Makhamatdinov, and Islam Urazbaev. "ACTIVITIES OF NEW KARAKALPAKSTAN CULTURAL CENTERS: REFORM AND ANALYSIS." *Art and Design: Social Science* 3.01 (2023): 1-4.
17. Xolmo'Minov, Mo'Minmirzo, and Asilbek Qolqanatov. "HIMMATNING QIYMATI ILM VA TAFAKKUR XAZINASI." *World of Philology* 2.1 (2023): 59-64.
18. QOLQANATOV, Asilbek. "'O 'ZBEKKONSERT" DAVLAT MUASSASASI FAOLIYATI: TADQIQOT VA TAHLIL." *TA'LIM VA INNOVATION TADQIQOTLAR* 12 (2023): 8-14.
19. Nazarbai, Kolkanatov Asilbek. "NEW VOICE IN UZBEK DIRECTION." *Journal of Innovation, Creativity and Art* 2.12 (2023): 65-70.
20. Alfiya, Qolqanatova. "Milliy Musiqa San'ati Va Yoshlar Tarbiyasi." *Journal of Creativity in Art and Design* 1.2 (2023): 16-20.
21. QOLQANATOV, Asilbek. "MA'DANIYAT VAZIRLIGI VA MADANIYAT MARKAZLARI: TARIXIY TARAQQIYOT JARAYONLARIDAN." *News of UzMU journal* 1.1.1. 1. (2024): 16-20.
22. Nazarbay o'g'li, Qolqanatov Asilbek. "OMMAVIY TOMOSHA MUASSASALARI FAOLIYATI TAHLILI." *Academic Integrity and Lifelong Learning (France)* 2 (2023): 15-21.
23. Nazarbaevna, Qolqanatova Alfiya, and Kojalepesov Sultanbay Serjanovich. "The Importance of Scenario in Cultural Events." *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION* 4.2 (2024): 259-262.
24. Yuldasheva, M. B., and A. N. Qolqanatov. "KADRLAR POTENSIALI IJTIMOYIY-MADANIY SOHADA TASHKILOT FAOLIYATI SAMARADORLILIGINI OSHIRISHSHNING YETAKCHI OMILI SIFATIDA." *Inter education & global study* 8 (2024): 58-68.





25.VA, INSONGA E'TIBOR, and SIFATLI TA'LIM YILI. "Imom Buxoriy saboqlari."

26.Nazarbay o'g'li, Qolqanatov Asilbek, and Jumanazarov Zohidjon Eldor o'g'li. "AUDIOVIZUAL INDUSTRIYA TÚSINDIRMESI." *Multidisciplinary Journal of Science and Technology* 5.5 (2025): 122-129.

